

Modern education and development

Ingliz tilida so‘z va so‘z birikmalarini yasalishining asosiy usullari

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Chet tillar kafedrasini katta o‘qituvchisi

Maxmudova Shaxlo Mizrobovna

shaxlosha2022@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim

Sirtqi bo‘lim MT-22-05 C guruh

talabasi Isayeva Zilola

Annatatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidagi so‘z va so‘z birikmalarini yasalishi usullarini muhokama qiladi va misollar bilan yoritadi. Har bir til rivojlanishida so‘zlarning yasalishi qoidalari mavjud. Ingliz tilidagi so‘z yasalish usullari boshqa tillardan farq qiladi. Derivatsiya tushunchasi zamonaviy tilshunoslikdan tashqari turli sohalarda qo‘llanilib, boshqacha ma’nolarni beradi. Tilshunoslikda esa bu tushuncha keng ma’noda qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: So‘z, so‘z birikmasi, derivatsiya, tilshunoslik, usul, metod, vosita, qoida, affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya.

Bugungi zamonaviy tilshunoslik fanidagi muhim masalalardan biri so‘z yasalish jarayoni bo‘lib, hanuzgacha o‘z murakkabligini yo‘qotmay kelayotgan muhokamali va munozarali mavzu hisoblanadi. So‘z yasalishi tilda mavjud bo‘lgan imkoniyat va materiallar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilishdan iborat. So‘z yasalishi til lug‘at tarkibini doimiy ravishda boyib borishi uchun o‘z hissasini qo‘shib keladi.

So‘z yasalishi, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan bo‘lmashin yangi leksik ma’noli so‘z hosil qilishdir. So‘z yasalishi tilshunoslikning ayrim bir bo‘limi sifatida so‘zlarning yasalishini, yangi leksik birlik hosil qilishning qonunqoidalarini, vositalarini, so‘z yasalishi tarkibini tekshiradi. Demak, bu

Modern education and development

sohaning obyekti yasama so‘zdir. “Har bir til asosan o‘z lug‘at boyligi va gramatik qurilishi asosida o‘z taraqqiyot qonunlari bo‘yicha o‘sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan lug‘aviy birliklar, qismangina fonetik va gramatik birliklar) ikkinchi tilga o‘tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi.

So‘z narsa, belgi, shaxs, ish harakatni umumiy ifodalash uchun xizmat qiladi, “a pen” degan “ruchka”ni tushunamiz, “to read” deganda “o‘qimoq”likni tushunamiz.

So‘z birikmasi ham narsa, belgi, ish harakatni ifodalaydi va bu jihatdan so‘zga o‘xshab ketadi, ammo so‘z birikmasi narsa, belgi, ish harakatni boshqa narsa, belgi, ish harakatdan ajratib aniqroq qilib ifodalaydi.

A student- a clever student-aqlli talaba;

A girl - a beautiful girl-chiroyli qiz.

Ayniqsa, so‘z birikmasini qo‘shma so‘zdan farqlash kerak. Ular quyidagilar:

1. So‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlar o‘zaro ma’no mustaqilligini saqlaydi, qo‘shma so‘z qismlari esa ma’no mustaqilligini yo‘qotgan bo‘ladi.

Qiyoslaganda esa, so‘z birikmasining tarkibidagi so‘zlarni o‘zaro almashtirish mumkin, iborada bunday bo‘lmaydi:

Children’s toy-the toy of children;

The father’s glass-the glass of the father;

The boy’s shoes-the shoes of the boy;

So‘z birikma va ibora quyidagicha farqlanadi.

1. So‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘lib, kamida ikkita tushunchani bildiradi. Ibora tarkibidagi so‘zlar esa bir tushunchanigina ifodalash uchun birlashib, yaxlitlanib qolgan.

2. Ibora ma’no jihatdan bir so‘zga teng, ajralmas holatga kelib qolgan birliklar. Shuning uchun uni lug‘atlarda so‘zlar qatorida berish mumkin. Uning tarkibidagi so‘zlarning hokim yoki tobe birklarga ajratish mumkin emas.

Modern education and development

Qiyoslaymiz: a pink pencil - so‘z birikmasi (aniqlovchi-aniqlanmish), good morning - ibora. So‘z birikmalari lug‘atlarda berilmaydi.

3. So‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarning o‘rnini almashtirish mumkin, iborada bunday qilib bo‘lmaydi: my sister’s dress-the dress of my sister opamning ko‘ylagi, his friends bag - bag of his friend; uning do‘stini sumkasi.

So‘z birikmasi va gap

1. Gap fikr, tasdiq yoki inkor hukmini bildirib, tugallangan ohang bilan Aytildi: The shop is big.

So‘z birikmasi esa sanash ohangi bilan aytildi: A good mind.

Avval, bosh so‘z keyin keladi: A smart boy-aqli bola; A little street-kichkina ko‘cha, A high degree-baland daraja.

Agar ular o‘rnini o‘zgartirilsa gap hosil bo‘ladi: the street is little -ko‘cha kichkina: The girl is clever-qiz aqli; the degree is high-daraja baland.

Bitishuvda ergash so‘z vazifasida sifat, ravish hamda ular vazifasidagi boshqa so‘zlar keladi: A red dress-qizil kuylak, A silver ring-kumush uzuk;

Bosh so‘z ot va fe’l so‘z turkumidan bo‘ladi.

Sintaksis tadqiq qiladigan asosiy birliklar so‘z birikmalari va gaplardir. So‘z birikmasi – semantik va strukturaviy jihatdan bir-birini taqozo qiladigan kamida ikkita mustaqil so‘zlarning birikishidan hosil bo‘lgan birlik.

Ingliz tilida so‘z birikmalarining quyidagi turlari bor: 1) teng bog‘langan: Ann and Tom, boy and girl, the sky and the star; 2) tobe bog‘langan: tall girl, smart doctor, politially active; 3) predikativli: Tom’s singing, him to sing, him changed, it being dark.

So‘z birikmalari o‘zaro sindetik va asindetik bog‘lanishi mumkin. Sindetik bog‘lanish deganda biz, bog‘lovchilar orqali bog‘lanishni tushunamiz (everybody but him, he and she, neither Jack nor Tom), asindetik bog‘lanish deganda esa, hech qanday qo‘shimchalarsiz bog‘lanishni tushunamiz (handsome man, Arthur the singer, King John).

So‘z yasash tilning lug‘at boyligini oshirishda eng samarali usullaridan biridir. Zamonaviy ingliz tilida so‘z yasalishining ikki xil turi ko‘rishimiz

mumkin, birinchi usul produktiv hisoblanadi. Bunday deyilishiga sabab bugungi kunda bu usullar orqali yangi so‘zlar yasaladi va produktiv usulo‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) affikslar yordamida (affiksatsiya);
- 2) konversiya;
- 3) abbrivatura (qisqartirish);
- 4) kompozitsiya (so‘z yoki negiz qo‘shish orqali).

Affiksatsiya. Tilda ko‘p shakllanish turlari mavjud bo‘lib, shulardan biri affiksatsiyadir. Affiksatsiya eng keng tarqalgan morfologik jarayon sifatida da’vo qilish mumkin. Inson tilida ehtimol qo‘shma so‘zlarni yaratishning engkeng tarqalgan usulidir. Syzmanekning fikricha, affiksatsiya, umuman“ Ildizli morfema bilan bog’lanishning birikmasi ya’ni o‘zakka qo‘shilgan morfema affiks yoki affiksatsiya deb atalish jarayoni ” deb ta’riflagan. Affiksatsiya – asosga hosila affikslarini qo‘shish orqali so‘z yasalishidir. Asosning old tomoniga bog’langan affiks prefiks deyiladi, asosning oxiriga biriktirilgan bo‘lsa suffiks deyiladi so‘zning o‘rtasida kelsa infiks deyiladi, bu yerda prefix, infiks va suffikslarga ba’zi misollar keltirilgan.

Ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarda uchraydigan qo‘shimchalar ko‘plik (s/es), qo‘shimcha (-ed), qo‘shimcha (-er) va (-s) kabilardir. Ingliz tilida ushbu qo‘shimchalar bilan ko‘rsatilgan o‘n yettita flektiv qo‘shma so‘zlar mavjud.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, ular juda ko‘p degan xulosaga kelish mumkin konvertatsiya natijasida ingliz tilida yangi so‘zlar paydo bo‘ladi. Berilgan ommaviy axborot vositalaridan olingan misollar bu hodisaning zamonaviy ingliz tilida keng tarqalganligini isbotlaydi. Tilshunoslarning fikriga ko‘ra, konvertatsiya har doim ham grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lmasa ham, kundalik so‘zlashuv nutqida ko‘proq uchraydi. Bu esa ko‘p jihatdan bu jarayonni rag‘batlantiradigan til va madaniyat ekanligini ko‘rsatadi. So‘z yasashning bu usuli tarjimonlar va ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun hech qanday muammo tug‘dirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tarjima jurnali: Ingliz tilidagi grammatik konversiya: Leksik evolyutsiyadagi ba'zi yangi tendentsiyalar.
2. Fox, G. Macmillan Ilg'or o'quvchilar uchun inglizcha lug'at / G. Fox. - Oksford: Macmillan Publishers.
3. Hamroyev M.A. Oliy yurtlari uchun qo'llanma. – T., 2008. – 79-82 b.
4. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent. 1973. - 616.
5. Bektoshev Otabek Qodiraliyevich. Ingliz tili nazariy grammatikasi. O'quv qo'llanma. 17-Б.
6. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). Culture and linguistics. Relationships. In international conference: problems and scientific solutions. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).
7. N Sobirova, Sh Maxmudova - Informatsion texnologiyalar asosida yuqori malakali, zamонавиъ хотин-қизларни таъyorlashning dolzarb muammolari / Евразийский журнал академических исследований, 2024
8. Худайкулова Ф. Х Синонимия простых предложений с обстоятельствами места и сложных предложений с придаточными места/ “Тил ва адабиет таълими” 2024 №3